

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

BUGUNGI KUNDA O`RASH QADOQLASH MAHSULOTLARINING JAHON BOZORIDAGI TENDENSIYALARI

D. R. Safayeva

Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat institute, Toshkent sh., Shoxjaxon ko`chasi

J. O. Xudaybergenov

Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat institute, guruh talabasi Toshkent sh., Shoxjaxon ko`chasi


Maqolada o`rash qadoqlash mahsulotlari turlari, qo'llanish soxalari va ularning jahon bozoridagi tendensiyalari o`rganib chiqildi va tahsil qilindi.

Kalit so`zları: o`rash-qadolash mahsulotlari, tendensiylar, polimerlar, qadoqlar.

Bugungi kunda har qanday mahsulotning tashqi ko`rinishi ma'lum darajada o`rash mahsulotlari bilan bog'liq. O`rash va qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o`rtasida asosiy aloqa kanallaridan biri hisoblanadi. O`rash mahsulotlari va mahsulotni bezashga taalluqli ma'lum standartlar ishlab chiqilgan bo`lib, ular dasturulamal bo`lib hizmat qilmoqda.

Jahon bozorida qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarilishi o'sishi kuzatilgan yagona sanoat bo`lib qolmoqda (yiliga 3,33,5%). 2020-yilga kelib matbaa bozorining umumiyligi hajmidagi (468 milliard dollar) qadoqlash mahsulotlari ulushi 157 milliard dollarni tashkil qilib, ularga gadoqlash uchun qutilar, yumshoq qadoqlar kiradi. Qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish flekso bosma usulida 2,6% ga, raqamli bosmada esa 8% ga o'sishi kutilmoqda.

Euromonitor ma'lumotlariga ko`ra, qadoqlash mahsulotlarining 2018-yilda global savdo hajmi 4,3 trillion donadan oshdi, ularning eng katta qismi polimerdir, Bugungi kunda barcha turdag'i qadoqlarning qariyb 50% polimerlardan tayyorlanmoqda. Polimer qadoqlarning eng katta qismi (53%) yumshoq qadoqlar bo`lib, bu ko`rsatkich doimiy ravishda o'sishda davom etmoqda(Rasm-1). Shu bilan birga, talabning asosiy qismi oziq -ovqat sanoati uchun qadoqlash mahsulotlariga to`g'ri keladi. Bunga sabab ular yengil, ochilishi osonligi, shuningdek mahsulotni vizual tanlash qulayligini ta'minlashidir.



Rasm-1.Jahon bozorida o'rash -qadoqlash mahsulotlari.

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

Qattiq qadoqlar - bu tez rivojlanayotgan moslashuvchan qadoqlash sanoatidir. Bu iste'molchilarning qulay qadoqlardan foydalanish istagi bilan bog'liq bo`lib, qattiq taglikli vertikal qadoqlar ishlab chiqarish jarayoning osonligi va ochilishi osonligi bilan ajralib turadi. Yengil bo`lganligi sababli, vertikal qadoqlar, bir tomonidan, xom ashyni tejaydi, boshqa tomonidan, transport xarajatlarini ham kamaytiradi. Bundan tashqari, zamonaviy qadoqlash texnologiyalari sterilizatsiya qilingan paketli qadoqlar yordamida mahsulot sifatini yaxshilaydi va ularni to`ldirish tezligini ta'minlaydi.

Taxminan 40% bilan ikkinchi o`rinni qattiq plastmassadan tayyorlangan qadoqlash egallaydi. Plastmassadan tayyorlangan qadoqlarning iste'molchilarichimliklar sanoati mahsulotlari hisoblanadi: ko`p yillar davomida ichimliklar uchun PET qadoqlar yetakchi o`rinlarni egallab kelmoqda. Alkogolsiz ichimliklar, ayniqsa suvga bo`lgan global talabning oshishi, shubhasiz, kelgusi yillarda PET mahsulotlariga talabning yanada oshishiga olib keladi. Raqamlashtirish endi yangilik bo`limgan yorliq bozoridan tashqari, qadoqlash sanoatining barcha segmentlari vakillari ham asta-sekin raqamli texnologiyalarga moyil bo`lishmoqda. Raqamlashtirish ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga ta'sir ko`rsatdi xususan prepress va postpress, chop etish, ranglarni boshqarish va boshqalarga. Kelgusida bu tendentsiya yanada faolroq namoyon bo`ladi, chunki raqamlashtirilgan chop etish jarayonida mahsulotni qisqa muddatlarda kam xarajatlari bilan ishlab chiqarishga va ekologik toza ishlab chiqarish jarayonini saqlashga imkon beradi. Mavsumiy, mintaqaviy va boshqa turdag'i o`zgarmaydigan qadoqlar o`z o`rnida qoladi.

Mahsulotni biror bir shahs uchun atalganday shaxsiylashtirish iste'molchining e'tiborini tobora ko`proq jalg etadigan tendentsiyalardan biridir. Raqamli texnologiyalardan foydalanish qadoqlash sanoatiga mikromarketingida, yangi markali dizaynlarni joriy etish va o`z mahsulotlari bilan xaridorlar e'tiborini qaratib mahalliylashtirish va shaxsiylashtirish imkoniyatini beradi. Raqamli bosma usulida chop etish etiketkalar ishlab chiqarishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, ayniqsa qisqa muddatlarda mijozlar uchun yangi imkoniyatlarni taklif etadi. Raqamli texnologiyalarning qadoqlash sanoatidagi asosiy kamchiligi chop etish harajatlarining yuqoriligidadir. Raqamli chop etish, iqtisodiy jihatdan faqat kichiq hajmli buyurtmalar uchun unumlidir.

Ekspertlarning fikricha, 2019 yildan 2027 yilgacha yuqori to`sinq hususiyatlari qadoqlash pylonkalarining jahon bozoridagi hajmi har yili o`rtacha 7,8 foizga o'sib borishi kutilmoqda. Qadoqlash sanoatida turli hil pylonkalardan foydalaniladi: antifog, antibacterial, ultrabinafsha nurlaridan himoyalovchi, chirishga chidamli, zarba modifikatorli. Antibakterial qadoqlar jahon bozorida 2019-yildan 2024-yilgacha har yili 5,1% o'sadi, go'sht, baliq, pishloq va boshqa tez buziladigan mahsulotlar uchun yuqori to`sinq hususiyatlari qadoqlar ulushining oshishi ham taxmin qilinmoqda. Jahon korxonalari sa'y -harakatlari bilan antiseptik ishlanmalar asta-sekin amaliyotga joriy etilmoqda.

Bugungi kunda, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish qiyinroq, biroq mutaxassislar ularidan voz kechmay, balki yangi yo'llarni izlamoqda. Masalan, ba'zi kompaniyalar qayta ishlanadigan mono -qadoqlarga o'tishdi (Unilever's Knorr markasi). Boshqa tamoyil - qayta ishslash emas, balki qadoqlashni qayta ishlatish - hozirda ba'zi kompaniyalar (masalan, L'Oreal) va Evropa mamlakatlari hamda Yaponianing yirik chakana savdo tarmoqlari tomonidan qo'llanilmoqda. Aksariyat odamlar uchun qadoqlarning "chidamliligi" uni sotib olish qarorlariga sezilarli ta'sir qiladi.

Darhaqiqat, qadoqlash sanoati boshqalar kabi pandemiya ta'siriga duch kelmadidi. Bundan tashqari, garchi pandemiya davrida sanoat ishlab chiqarishining o`zi 9.8% ga pasaygan bo`lsada, qadoqlarni iste'mol qiladigan sanoatning asosiy segmentlari o'sishni ko`rsatdi. Polimer pylonkalar ijobji dinamikani saqlab qoldi, plastmassa, metall qadoqlar, shisha hajmining o'sishi kuzatilmoqda. Eng yuqori o'sish farmatsevtika va oziq -ovqat mahsulotlarining qadoqlari hajmida namoyon bo`ladi.

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

Bugungi kunda bir martali ishlataladigan plastik qadoqlar eng xavfsiz buyumlar sirasiga kirmoqda. Shuning uchun ham ularning qadoqlash bozorida sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Yana bir kutilmagan tendentsiya - oziq -ovqat sanoati sohasida kichik qadoqlash va maishiy kimyo segmentida katta idishlarga bo`lgan talabning ortishi. Mutaxassislar bu tendentsiyani aholining xarid qobiliyati pasayishi va oqilona iste'mol tendentsiyasi bilan bog'laydilar. Ekspertlar bugungi kunda qadoqlash sanoatida katta o`zgarishlar zarurligini va ularning barchasi katta moliyaviy sarmoyalarni talab qilmasligini kerakligini ta'kidlamoqdalar. Masalan, plastmassa qo`shilmasdan faqat qog'ozdan yasalgan bir marta qo`llaniladigan idishlar paydo bo`lishi ularni to`liq qayta ishlash imkonini vujudga keltirdi. Yana bir istiqbolli yo`nalish - qadoqlash jarayonini butunlay avtomatlashtirish hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko`rsatdiki, 2020 va 2021 yillardagi dizaynerlarning qarashlari bir -biridan juda farq qiladi: sodda tasvirlardan keng foydalanilmoqda.

2020-pandemiya yilida biz onlayn tijorat kundalik hayotimizda qanchalik muhimligini ko`rdik. Onlayn tijoratning ko`payishi bilan xaridorlar talablari va extiyojlarini qondirish uchun har qanday takliflarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim etilishi muhim axamiyat kasb etdi. Bunda ishlab chiqaruvchilar va dizaynerlar iste'molchilar qo`liga o`z mahsulotlarini yetkazish uchun yuqori darajada tayyorgarlik ko`ra boshladilar.

2020-21 yilga mo`ljallangan qadoqlash mahsulotlari dizaynining asosiy tendentsiyalari quyidagilarni o`z ichiga oldi:

1. Ichki tarkibga ishora qiluvchi mayda bezaklar
2. Giper-soddalashtirilgan geometriya
3. Qadoqlar dizaynidagi san'at
4. Dizayndagi anatomik va texnik rasmlar
5. Organik ranglardan foydalanish
6. Betakror mahsulot nomi
7. Qadoqlardagi mukammal simmetriya
8. Mahsulotda turli hikoyalar

Albatta barcha keltirilgan tendentsiyalar, mahsulotni bozorda o`z o`rnini egallahga iste'molchilar auditoriyasini yaratishga hizmat qiladi.

Pandemiyadan keyin har bir insonning turmush tarzi, biznes strategiyasi va shaxsiy hayotida katta o`zgarishlar bo`ldi. Epidemiya ishlab chiqaruvchilar ish joylari joylashuvi, brend xabarları va asosiy qadriyatlarini qayta ko`rib chiqishga majbur qildi va bu o`zgarishlar 2022 yil uchun ham mustasno emas. Qadoqlash tendentsiyalari doimo muhim bo`lib qolmoqda, chunki ular kuchli marketing vositasi hisoblanadi. Savdo rastalarida turgan mahsulotining qanchalik samarali sotilishi haqida gap ketganda, etiketkalash tizimingiz muhim rol o`ynashini unutmaslik kerak. Qadoqlar va ularning dizayni mahsulot xavfsizligi va himoyasini ta'minlashda, shuningdek, tovar brendini targ'ib qilishda muhim rol o`ynaydi. Bunda barcha harakat trendlarni qadoqlar ranglarida ko`rsatish va brendni mavjud materiallar, dizaynlar va bosma imkoniyatlar orqali yetkazishga qaratiladi. Ekologik toza, kam resurs talab qiladigan va kamroq chiqindilarni hosil qiladigan qadoqlar zamon talabiga aylandi.

Insoniyat dabdaba va turli hilliklardan shunchalik charchaganki bugunga kelib retro estetika muhim tendentsiyalarni tashkil qilmoqda. Oddiy va sodda, dizayn, sodda shrift va bosiq ranglar – retro estetik uslubni tashkil qiladi. Amaliyligi nuqtai nazaridan bu uslub deyarli har qanday mahsulot yoki ishlab chiqarishda qo`llanilishi mumkin. Ranglar haqida gap ketganda, och "yumshoq" va tabiiy ranglar ideal hisoblanadi.

Pandemiyala insonlarni oila davrasida uyda qolishga majbur qildi, bu esa oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish hizmatlarining ortishiga olib keldi. Shunday vaziyatda, qadoqlar mahsulotlarni

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

nafaqat ximoya vositasi sifatida xizmat qilishiga balki istemolchini tashqi viruslar xavfidan himoya qilishi muhim ekanligi namoyon bo`ladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, qadoqlash sanoati eng "ilg'or" sohalardan biridir. Zamonaviy qadoqlash materiallari mahsulotlarni tashqi ekologik ta'sirlardan (UV nurlanishi, harorat, namlik, atmosfera kislorodi, mexanik va kimyoviy ifloslanish) himoya qiladi. Texnik - iqtisodiy ko`rsatkichlar nuqtai nazaridan eng istiqbolli - qadoqlar joyidagi fizik -kimyoviy va biokimyoviy jarayonlarni tartibga solishga qodir "faol" qadoqlar materiallaridir. Bunday faol polimer plyonkalar qadoqlangan mahsulotlarni saqlash bilan bog'liq muammolarni yangi usulda hal qilish imkonini beradi. Ular minimal xavf bilan investitsion kapital qu`yilmalarning istiqbolli maydonini tashkil qiladi, chunki qadoqlash sanoatining rivojlanishidagi jahon tajribasi qadoqlangan mahsulotlar sifatining barqarorligiga ta'siri yo`nalishi bo`yicha polimer materiallarning rivojlanish tendentsiyalarini aniq belgilab beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Handbook of print media: technologies and production methods /H. Kipphan. - Berlin; Heidelberg; New York; Barcelona; Hong Kong; London; Milan; Paris; Singapore; Tokyo: Springer, 2001. - 1207 p.
2. Колесников В. Л. Системный анализ производственных процессов в полиграфии : учеб. пособие. / В. Л. Колесников. — Минск : БГТУ, 2011. -352 с.
3. Тихонов В. П. Технология печатных процессов / В. П. Тихонов, С. А. Гуляев. - М., 2010. - 150 с.
4. Колесников В. Л. Беседы о системном анализе и информационных технологиях [Электронный ресурс] : Talkings. - Электрон. дан. и прогр. (37,4 Мб). - Минск, 2013. - 1 электрон. опт. диск (CD ROM).
5. Ефремов, Н. Ф. Конструирование и дизайн тары и упаковки: учебник для вузов / Н. Ф. Ефремов, Т. В. Лемешко, А. В. Чуркин. — М.: МГУП, 2004. — 400 с.
6. Ю.Соколников “Все об упаковке” Издательский дом ТИГРА, 2001— 8-12с.
7. D.R.Safaeva, I.A.Bulanov “O`rash qadoqlash materiallari”, Noshir 2021—21b.